## EMITENTNING YUQORI BOSHQARUV ORGANI TOMONIDAN QABUL QILINGAN QARORLAR

| | | |
|---|---|---|
| 1. | **EMITENTNING NOMI** | |
| | To‘liq: | “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati |
| | Qisqartirilgan: | “O‘zkimyosanoat” AJ |
| | Birja tikerining nomi: | - |
| 2. | **ALOQA MA’LUMOTLARI** | |
| | Joylashgan yeri: | 100011, O‘zbekiston Respublikasi Toshkent shahar Navoiy ko‘chasi, 38-uy. |
| | Pochta manzili: | 100011, O‘zbekiston Respublikasi Toshkent shahar Navoiy ko‘chasi, 38-uy. |
| | Elektron pochta manzili: | uzkimyosanoat@uks.uz |
| | Rasmiy veb-sayti: | www.uzkimyosanoat.uz |
| 3. | **MUHIM FAKT TO‘G‘RISIDA AXBOROT** | |
| | Muhim faktning raqami: | 06 |
| | Muhim faktning nomi: | Emitentning yuqori boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qarorlar |
| | Umumiy yig‘ilish turi: | Navbatdan tashqari |
| | Umumiy yig‘ilish o‘tkazish sanasi: | 31.01.2023 |
| | Umumiy yig‘ilish bayonnomasi tuzilgan sana: | 31.01.2023 |
| | Umumiy yig‘ilish o‘tkazilgan joy: | 100011, O‘zbekiston Respublikasi Toshkent shahar Navoiy ko‘chasi, 38-uy. |
| | Umumiy yig‘ilish kvorumi: | 100,00 |

| № | Ovoz berishga qo‘yilgan masalalar | Ovoz berish yakunlari | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | yoqlash | | qarshi | | betaraf | |
| | | % | soni | % | soni | % | soni |
| 1. | “O‘zkimyosanoat” AJ yagona aksiyadorining 2022-yil 15-noyabrdagi 20-son qarorini bekor qilish. | 100,0 | 789 819 770 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| | “O‘zkimyosanoat” AJning qo‘shimcha aksiyalarini chiqarish orqali ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish to‘g‘risida. | 100,0 | 789 819 770 | | | | |
| | “O‘zkimyosanoat” AJning aksiyalar qo‘shimcha chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorini tasdiqlash to‘g‘risida. | 100,0 | 789 819 770 | | | | |

| № | Umumiy yig‘ilish tomonidan qabul qilingan qarorlarning to‘liq bayoni: |
|---|---|
| 1. | “O‘zkimyosanoat” AJ yagona aksiyadorining 2022-yil 15-noyabrdagi 20-son qarori bekor qilinsin. |
| 2. | “O‘zkimyosanoat” AJning 904 343 636 650 so‘mlik ustav fondini 1 393 274 094 150 so‘mga yetkazish uchun nominal qiymati 1 145 so‘mdan bo‘lgan 427 013 500 dona umumiy qiymati 488 930 457 500 so‘mlik egasining nomi yozilgan oddiy qo‘shimcha aksiyalar chiqarilsin. |
| 3. | Qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish tartibi va shartlari quyidagicha belgilansin:<br>Aksiyalar jamiyatning yagona aksiyadori – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga yopiq usulda birjadan tashqari uyushmagan qimmatli qog‘ozlar bozorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bitimlarni ro‘yxatdan o‘tkazish yo‘li bilan joylashtiriladi;<br>Aksiyalarni joylashtirish qo‘shimcha aksiyalar chiqarish to‘g‘risidagi qaror qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organi tomonidan davlat ro‘yxatiga olingan kundan boshlab 30 kun davomida amalga oshiriladi;<br>Aksiyalarni joylashtirishni boshlash sanasi – qo‘shimcha aksiyalar chiqarish to‘g‘risidagi qaror qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organi tomonidan davlat ro‘yxatiga olingan kun;<br>Agar joylashtirishning boshlanish sanasi dam olish kunlariga to‘g‘ri kelsa, joylashtirishning boshlanish sanasi o‘sha kunlardan keyingi birinchi ish kuniga ko‘chiriladi. Aksiyalarni joylashtirishni tugatish sanasi – ushbu chiqarilishdagi eng oxirgi aksiya joylashgan sana, lekin qo‘shimcha aksiyalar chiqarish to‘g‘risidagi qaror qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organi tomonidan davlat ro‘yxatiga olingan kundan boshlab 30 kundan oshmasligi lozim; Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar 1 145 (bir ming bir yuz qirq besh) so‘mdan joylashtiriladi; |

| | |
|---|---|
| | Aksiyalar uchun to‘lov quyidagilar hisobiga amalga oshiriladi: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-dekabrdagi 792-F-son farmoyishiga asosan Toshkent kimyo-texnologiya instituti va “O‘zkimyosanoat” AJ o‘rtasida 2022-yil 19-yanvarda tuzilgan topshirish-qabul qilish dalolatnomasi asosida “O‘zkimyosanoat” AJ ustav fondidagi davlat ulushini oshirish hisobiga berilgan Toshkent shahri Mirzo Ulug‘bek tumani TTZ-1 mavzesi, 47-uy manzilida joylashgan Toshkent kimyo-texnologiya institutiga tegishli bo‘lgan bino va inshootlarning 2 144 101 618,83 (ikki milliard bir yuz qirq to‘rt million bir yuz bir ming olti yuz o‘n sakkiz so‘m sakson uch tiyin) so‘m balans (qoldiq) qiymati;<br>O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kimyo sanoati sohasida fosforli o‘g‘itlar ishlab chiqarishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 21-fevraldagi qaroriga asosan “Olmaliq KMK” AJ, “O‘zkimyosanoat” AJ va “Qizilqum fosforit kompleksi” MChJ o‘rtasida 2022-yil 10-martda tuzilgan topshirish-qabul qilish dalolatnomasi asosida “O‘zkimyosanoat” AJ ustav fondidagi davlat ulushini oshirish hisobiga berilgan “Olmaliq KMK” AJga tegishli “Qizilqum fosforit kompleksi” aktivlarining 450 665 149 465 (to‘rt yuz ellik milliard olti yuz oltmish besh million bir yuz qirq to‘qqiz ming to‘rt yuz oltmish besh) so‘m balans (qoldiq) qiymati;<br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent viloyatida “Chirchiq” kimyo-industrial texnoparkini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 3-fevraldagi PQ-116-son qaroriga asosan “Olmaliq KMK” AJ va “O‘zkimyosanoat” AJ o‘rtasida 2022-yil 5-avgustda tuzilgan topshirish-qabul qilish dalolatnomasi asosida “O‘zkimyosanoat” AJ ustav fondidagi davlat ulushini oshirish hisobiga berilgan Nodir metallar va qattiq qotishmalar ishlab chiqarish bo‘yicha ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasidagi bino-inshootlar va ular joylashgan yer maydonlarining 2 891 500 527,67 (ikki milliard sakkiz yuz to‘qson bir million besh yuz ming besh yuz yigirma yetti so‘m oltmish yetti tiyin) so‘m balans (qoldiq) qiymati;<br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-sentabrdagi qaroriga asosan “Farg‘onaazot” AJ, “O‘zkimyosanoat” AJ, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Farg‘ona hududiy boshqarmasi va Farg‘ona viloyati hokimligi o‘rtasida 2022-yil 21-oktabrda tuzilgan topshirish-qabul qilish dalolatnomasi asosida “O‘zkimyosanoat” AJ ustav fondidagi davlat ulushini oshirish hisobiga berilgan Farg‘ona shahar Kimyogarlar ko‘chasi, 1-uy manzilida joylashgan “Farg‘onaazot” AJning 3-son sanoat maydonchasidagi “Atsetat tolalari” ishlab chiqarish sexining tutash hududi bilan birga (sobiq “Kimyoviy tolalar zavodi” DUK) bino va inshootlarining 4 532 647 641,57 (to‘rt milliard besh yuz o‘ttiz ikki million olti yuz qirq yetti ming olti yuz qirq bir so‘m ellik yetti tiyin) so‘m balans (qoldiq) qiymati;<br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kimyo va gaz-kimyo sanoatini strategik rivojlantirishning maqsadli dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” 2022-yil 10-oktabrdagi PQ-388-son qaroriga asosan “Farg‘onaazot” AJ, “O‘zkimyosanoat” AJ, “Farg‘ona kimyo texnoparki direksiyasi” MChJ, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Farg‘ona hududiy boshqarmasi va Farg‘ona viloyati hokimligi o‘rtasida 2022-yil 11-noyabrda tuzilgan topshirish-qabul qilish dalolatnomasi asosida “O‘zkimyosanoat” AJ ustav fondidagi davlat ulushini oshirish hisobiga berilgan Atsetat tolalari ishlab chiqarish sexining bir qismi hamda Poliamid-6 ishlab chiqarish sexining bino-inshootlari va ular joylashgan (ularga tutash) yer uchastkalarining 28 697 057 902,94 (yigirma sakkiz milliard olti yuz to‘qson yetti million ellik yetti ming to‘qqiz yuz ikki so‘m to‘qson to‘rt tiyin) so‘m balans (qoldiq) qiymati;<br>Shuningdek, 2020-yil 26-iyunda R0315-14-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “O‘zkimyosanoat” AJning aksiyalar qo‘shimcha chiqarilishi to‘g‘risidagi qaroriga asosan 438 so‘m 72 tiyin hamda yagona aksiyadorning 2021-yil 20-dekabrdagi 8-son qaroriga asosan 341 so‘m 08 tiyin miqdoridagi qoldiq summa jami 488 930 457 935,81 so‘m mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Bunda 435 so‘m 81 tiyin miqdoridagi qoldiq summa davlat aktivi sifatida kelgusida hisobga olinadi. Mazkur chiqarilish amalga oshmagan deb topilgan taqdirda, ushbu chiqarilishdagi aksiyalar to‘loviga yo‘naltirilgan mablag‘lar qonunchilikda belgilangan tartibda aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan kundan boshlab, 10 kun ichida qaytariladi. |
| 4. | “O‘zkimyosanoat” AJning aksiyalari qo‘shimcha chiqarilishi to‘g‘risidagi qarori ilovaga muvofiq tasdiqlansin. |
| 5. | Jamiyat boshqaruvi raisi v.v.b. (Korjikov) aksiyalar qo‘shimcha chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorni belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bo‘yicha tegishli ishlarni amalga oshirsin. |